



O'ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RIVOJLANISH TARIXI

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O'zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bugungi kunda faoliyat yuritayotgan advokatura institutining vujudga kelishi, rivojlanishi hamda rivojlanayotgan O'zbekiston Respublikasida advokatura tizimini isloh qilish bosqichlari va uning zaruriyati olib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Advokatura, fuqarolik jamiyati, jismoniy va yuridik shaxslar, huquqiy davlat, professional, kollegiya, yuridik konsultatsiya, litsenziya.*

Abstract. *In this article, the history of the establishment and development of the currently operating bar institute, as well as the stages of the reform of the bar system in the developing Republic of Uzbekistan and its necessity will be revealed.*

Key words: *Civil society, individuals and legal entities, legal state, professional, legal consultation, license.*

Advokatura fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. U huquqiy davlat barpo qilishda alohida o'ringa ega, huquqiy munosabatlar subyektlariga tegishli malakali yuridik yordam ko'rsatishning kafolati bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda davlatchilik va huquq tarixi uch ming yildan ko'proq vaqtga to'g'ri keladi, garchi mamlakatda advokatlik instituti ancha keyin shakllana boshlagan bo'lsa-da. O'zbekistondagi ilk davlatlar hisoblangan Baqtriya, Xorazm, So'g'd, Parfiya, Yunon-Baqtriya, Kushon podsholigi va boshqalarda davlatchilik asoslari shakllangan.VII asr boshlarida O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinib, arab xalifaligi tarkibiga kiritildi. Bu esa XX asr boshlarigacha amalda bo'lgan musulmon huquqining tarqalishiga xizmat qildi.Shariat doirasida qonunlarni ro'yxatga olish huquqiy institutlarini,xususan advokatlik institutini yaratishni o'z ichiga oladi. Shariat bo'yicha sud ishlarida advokatlik institutining paydo bo'lishi musulmon huquqiy amaliyotining rivojlanishi va takomillashuvi natijasi bo'ldi. 1864-yildagi sud islohoti tufayli Rossiya imperiyasida qasamyod qiluvchi advokatlar instituti tuman sndlari yoki sud palatalarida davlat xizmatida bo'lgan advokatlar ish boshladi. O'zbekiston hududida o'zini o'zi boshqarish tuzilmasi sifatida "Himoyachilar bo'limi" deb nomlangan birinchi professional advokatura 1879-yilda Qo'qon shahrida tashkil etilgan bo'lib, o'ndan ortiq advokaturani o'zida birlashtirgan. Filial Sankt-Peterburgda huquqshunoslik diplomini olgan Abdunabi Qurolbay tashabbusi bilan tashkil etilgan. U birinchi o'zbek advokati sanaladi. 1899-yilda Toshkent sud palatasi va okrug sndlari huzurida himoyachilar kollejlari tashkil etildi. Ular Rossiya qonunlari bo'yicha faoliyat yuritgan. Buxoroda 1915-yildan boshlab Rossiya va Turkiyada advokatlik amaliyotini o'rgangan Valixon Xo'ja tomonidan tashkil etilgan Ko'ngilli yuristlar bo'limi faoliyat ko'rsatishni boshlagan. Shuni ta'kidlash kerakki, mahalliy aholi uchun advokaturaga qabul

qilinish murakkab va qiyin bo'lgan-nasroniy bo'limgan shaxslarga nisbatan cheklovlari mavjud bo'lib, ular faqat Adliya vazirining ruxsati bilan advokat bo'lishlari mumkin edi. Bundan tashqari rasmiy taqiq bo'lmasa-da, aslida ayollar advokaturaga kirishga ruxsat berilmagan. 1917-yilga qadar Turkiston o'lkasining qasamyod qilgan advokatlari orasida birorta ham ayol bo'limgan. 1917-yilgi inqilob Turkiston o'lkasidagi vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Eski adliyaning boshqa organlari bilan birga advokatura ham tugatildi. Sovet advokaturasiga asos solingan kun mohiyatan 1922-yil 26-may, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Advokatlik to'g'risidagi nizomni tasdiqlagan kun edi. Unda viloyat adliya boshqarmalari qoshida jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha himoyachilar kollegiyalarini tashkil etish ko'zda tutilgan. 1924-yilning may oyiga kelib, advokatlar kollegiyasida atigi 106 nafar himoyachi bor edi. Himoyachilarning umumiy sonidan faqat yigirmaga yaqin kishi mahalliy millat vakillari edi. 1924-yilning 1-oktabrda Butunrossiya Respublikasi Xalq Nozirlari Soveti sudlari huzuridagi inson huquqlari himoyachilari kollegiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqladi. 1936-yilda O'zSSR advokaturasida 186 nafar advokat faoliyat ko'rsatishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, aslida 127 nafar advokat faoliyat ko'rsatgan. O'sha paytda respublika advokaturasida bor-yo'g'i 33 nafar oliy yuridik ma'lumotli, 24 nafar yuridik maktab va kurs ta'limiga ega bo'lgan kishi ishlagan. Advokatlarning keskin tanqisligi munosabati bilan vaziyatni o'zgartirish va advokatlar sonini ko'paytirish, kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha ishlarning barcha shakllarini kengaytirish choralar ko'riliishi talab qilindi. 1936-yil SSSR Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan sudda himoya qilish huquqi kostitutsiyaviy prinsipga ko'tarildi. (111-modda). Unga asosan 1939-yil 16-avgustida SSSR advokatlar kengashi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi. Buning natijasida yuridik konsultatsiyalarda barcha ishlarni advokatlar amalga oshiradigan bo'ldilar.

1945-yilga kelib, urushdan keyingi dastlabki yillarda advokatura intitutining ahvoli salbiy tomonga o'zgardi. Bu urushda ko'plab advokatlarning o'limi bilan, shuningdek, ko'plab savodsiz himoyachilarning advokaturaga chaqirilishi bilan bog'liq edi. Bunga chek qo'yish maqsadida, SSSR Adliya vazirligining 1948-yil 12-yanvardagi buyrug'i, kollegiyalar prezidiumlarini o'z malakasini oshirishdan bosh tortgan savodsiz advokatlarni haydashga majbur qildi. 1958-yilga kelib esa advokatlar soni 1949-yilga nisbatan unchalik ko'paymagan bo'lsa-da, ularning orasida 282 nafari oliy ma'lumotli kadr edi. 1961-yil 30-mayda O'zbekiston SSSR Oliy Soveti advokatura to'g'risidagi yangi nizomni tasdiqlaydi. Shuningdek, 1979-yilda „SSSR advokati to'g'risida“ gi Qonuni qabul qilindi. Uning asosida O'zbekiston SSSRning 1980-yil 12-noyabridagi „O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati to'g'risida“gi nizom (1961-yil) yangi tahrirda qabul qilingan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Respublikasida advokatura instituti rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinib, unda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda advokaturaning rolini belgilab beruvchi huquqiy asoslar belgilandi. Vaqt o'tishi bilan advokaturani rivojlanib borishi hamda uni tartibga solish ehtiyoji natijasida 1996-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasining „Advokatura to'g'risida“gi Qonuni qabul qilindi va bu advokatlik institutini yanada rivojlantirishda muhim huquqiy hujjat bo'ldi. Qonunda, advokatlik faoliyatining prinsiplari va tashkiliy

shakllari, malaka komissiyalarini tuzish va ularning faoliyatining tartibi, Adliya vazirligining vakolatlari va masalalar belgilab berildi. Qonunning 3-moddasida oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'llanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin ekanligi belgilab qo'yildi. „Advokatura to'g'risida"gi Qonunning kuchga kirishi bilan advokatlar sonining ko'payishi kuzatila boshlandi. Prezidentning 2008-yil 1-maydag'i „O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda advokatlik sohasini yanada rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishi kerak bo'lgan muhim hujjat bo'ldi. 2008-yil 12-sentabrda Advokatlar palatasining ta'sis konferensiyasi bo'lib o'tdi, unda Adliya vazirligi, palata raisi taklifiga binoan nizom tasdiqlandi va taftish komissiyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Advokatura faoliyatini lisenziyalash va advokatlar tuzilmalarini tashkil etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 60-sonli qarori qabul qilindi.

2016-yilga kelib, mamlakatning yangi rahbari hokimyatga kelishi bilan O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shu jumladan advokatura institutida ham ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi. 2018-yil may oyida Prezidentning „Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjat mamlakatimiz advokatlik instituti rivojiga yangi sur'at bag'ishlangan, uni kelgusi yillarda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollarini belgilab bergen muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlardan biridir. Bundan tashqari 2022-yilda Shavkat Mirziyoyevni 2022-2026-yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni qabul qilindi. Strategyaning 100 tamaqsadi bo'lib, shundan 19-maqsadi „Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish"dan iborat. Bu ustuvor maqsadga erishsi uchun 6 ta vazifa belgilab qo'yildi. Xuddi shunday yildan yilga advokatura institutiga e'tibor kuchayib bormoqda.

Xususan, 2023-yil 30-aprelda yangilangan Respublikasi Konstitutsiyasida advokatura uchun alohida XXIV bob ajratildi, hamda uning 142-moddasida “Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi”, deb advokatlarning o'z faoliyatida mustaqilligi qonuniny asosda belgilab qo'yildi.

Xulosa. Advokatura instituti bugunga kelib shakllanib qolmadi, albatta. U ham o'z o'nida bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishmasdan avval shakllangan edi, biroq, ijtimoiy hayotda o'z o'nini egallay olmagan va deyarli ahamiyatsiz ham edi. Davlat mustaqillika erishib, Asosiy Qonuniga ega bo'lgandan keyingina advokatura institutining o'rni va ahamiyatini birmuncha to'g'ri baholay oldi desa bo'ladi va shundan beri bu sohaga e'tibor kuchaymoqda va yildan yilga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Sababi, demokratik davlatning o'ziga xos xususiyati bo'lgan inson huquq hamda erkinliklarini ta'minlash tom ma'noda advokaturaning zimmasidadir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. Qodiraliyev Saddam "Advokatura institutining tashkiliy-huquqiy masalalari". 2023-yil.
2. Vasikova M.S "O'zbekistonda advokaturaning yarim asrlik yubileyi". 1972-yil.
3. Abdumajidov G. "O'zbekistonda advokatlik kasbining rivojlanishi".
4. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 27.12.1996.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF 60-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-2023-yil.